

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**X.P.Jurayev**  
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga  
xos jihatlari .....285

**Sh.Sh.Jumayev**  
Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi  
faoliyati .....293

**K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova**  
Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion  
(the example of Jizzakh) .....297

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

**S.Mirzaeva, N.Y.Usarova**  
A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and  
uzbek folklore literature .....301

**A.G.Sabirdinov**  
Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik .....307

**G'.O.Xolbutayev**  
Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati .....310

**O.Barziyev, F.Baxtiyor**  
Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi .....317

**S.A.Xodjayev**  
Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar .....323

**H.K.Сабиров, В.А.Гиёсова**  
Движение джадидизм и узбекская детская литература .....326

**G.Ch.Muratova**  
G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri .....329

---

TILSHUNOSLIK

**N.R.Gafurova**  
O'zbek va ingliz tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari .....333

**Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova**  
O'zbek va ingliz tillarida iboralarning qo'llanishi .....338

**Y.E.Ro'ziboyeva**  
Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning  
lingvakulturologik xususiyatlari .....341

**N.R.Gafurova**  
Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari .....344

**M.G.Khoshimov**  
Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical  
clause as an invariant type of syntactic unit .....347

**D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova**  
Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida .....354

**M.M.Aslonov**  
The educational process and content of educational activities in the  
"House of Bukhara education" .....358

**Z.V.Alimova**  
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida .....362

**G.R.Mamadaliyeva**  
Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili .....367

**P.Sh.Kaxramonova**  
Badiiy asar tili va ekolingvistika .....373

**H.U.Davlatova**  
Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar .....376

**H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova**  
Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari .....380

**SAYOHAT TAASSUROTLARI BILAN BOG'LIQ POETIK TURKUMLAR TASNIFI**  
(*Milliy uyg'onish davri tojik va o'zbek she'riyati misolida*)

**КЛАССИФИКАЦИЯ ПОЭТИЧЕСКИХ РЯДОВ, СВЯЗАННЫХ С ПУТЕШЕСТВЕННЫМИ  
ВПЕЧАТЛЕНИЯМИ**  
(*На примере таджикской и узбекской поэзии периода национального возрождения*)

**CLASSIFICATION OF POETIC SERIES RELATED TO TRAVEL IMPRESSIONS**  
(*On the example of Tajik and Uzbek poetry of the period of national renaissance*)

**Barziyev Oybek<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

**Fayzulloyev Baxtiyor<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Tojikiston Respublikasi, Xo'jand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya**

Maqolada milliy uyg'onish davri adabiyoti tojik shoiri Ahmad Donish va Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning Yevropaga qilgan sayohatlari natijasida yuzaga kelgan lirik asarlar tahlilga tortilgan. Shu bilan birga shahrixonlik shoir Mulla Hoshim o'g'li Hayratiyning qalamiga mansub yozma dostonidagi voqeliklar tasniflangan hamda G'arb milliy madaniyatiga xos xususiyatlar, mazkur shoirlarning asarlaridagi farqli jihatlarni aniqlangan.

**Аннотация**

В статье анализируются лирические произведения поэта национального возрождения Ахмеда Дониша и сына Закирджона Холмухаммада Фурката, родившихся в результате их путешествий по Европе. В то же время были классифицированы реалии письменного эпоса, написанного поэтом-сыном муллы Хашима Хайратыра из Шахри-хана, выявлены особенности западной национальной культуры и разные аспекты творчества этих поэтов.

**Abstract**

The article analyzes the lyrical works of national renaissance poet Ahmad Donish and son of Zakirjon Xolmuhammad Furqat, who were born as a result of their travels to Europe. At the same time, the realities of the written epic written by the poet son of Mulla Hashim Hayratiyr from Shahri Khan were classified, and the characteristics of the Western national culture and the different aspects of the works of these poets were identified.

**Kalit so'zlar:** sayohat, bosmachilar, "Navodir ul-vaqoye" asari, to'y bazmi, Yevropa musiqa san'atidan ta'sirlanish, royal musiqa asbobi, xotin-qizlar taqdiri, qizlar erki, qahatchilik, G'arb va Sharq qizlarining turmush tarzini qiyoslash.

**Ключевые слова:** путешествие, печатники, работа Наводир уль-Вакайе, свадебный банкет, влияние европейского музыкального искусства, королевский музыкальный инструмент, женская судьба, воля девушек, голод, сравнение образа жизни западных и восточных девушек.

**Key words:** travel, printers, Navodir ul-Waqaye work, wedding party, influence of European music art, royal musical instrument, women's fate, girls' will, hunger, comparing the lifestyle of Western and Eastern girls.

**KIRISH**

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti she'riyatida ifodalangan an'anaviy mavzulardan biri sayohat taassurotlariga bag'ishlab yozilgan asarlar sanaladi. Bu davrda asosan aholining ziyolilar bo'g'inini Yevropa milliy madaniyatiga qiziqishi, tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rganish va G'arb sivilizatsiyasidan ta'sirlanishi kuchayib bordi. Texnika taraqqiyotiga qiziqish, Yevropa ta'lim tizimini o'zlashtirish kabi mavzular milliy uyg'onish davrining Farg'ona vodiysiga mansub shoirlari she'riyatiga ham ko'chib o'tdi. Shu bilan birga dunyo tamaddunidagi keskin o'zgarishlar Sharq hayoti va tafakkuriga qiyos qilingani holda lirik asarlarda tadqiq qilina boshlandi. Natijada, bu davrning she'riy asarlarida ratsioanalizm, ya'ni mulohazakorlik, hayotga aql ko'zi bilan qarash an'anasi kuchayib bordi.

**ASOSIY QISM**

Tojik xalq adabiyotining yorqin vakili Ahmad Donish (1826-1897) qalamiga mansub she'riy va nasriy asarlarda sayohat taassurotlari ustuvorlik qiladi. Shoir o'z ko'zi bilan ko'rgan-kechirganlarini hayratlangan holda ifoda etadi.

Ahmad Donishning 15 yil vaqt ichida yozilgan “Navodir ul-vaqoye” asarining ikkita bobi Rusiya safari taassurotlariga bag‘ishlangan. Jami 23 bobdan tashkil topgan mazkur asar hozirgacha to‘liq nashr qilingan emas. Tarixiy-falsafiy, memuar mavzudagi mazkur asarning VII bobida 1869-yilgi Rusiya safari tafsilotlari ifoda etilgan va u 1957-yilda kitob holda chop etilgan. Asarning VIII bobida podshoh Aleksandr II ning qizi Mariyaning 1874-yilda bo‘lib o‘tgan nikoh to‘yiga yuborilgan elchi Abduqodirbekning ko‘rgan-kechirganlari haqidagi tafsilotlar aks ettirilgan.

Umuman olganda, XIX asrning oxiri – XX asr boshlari she‘riyatida yangi mavzu – Rusiya xalqining hayotiga qiziqish, musiqa va san‘at sohasining Sharq milliy madaniyatiga solishtirish, xotin-qizlar turmush tarzi, ularning erk va huquqlarini yoritish kabi mavzular yetakchilik qiladi.

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning nag‘ma bazmi taassurotlariga bag‘ishlab yozilgan she‘riy manzumalarida va Andijon adabiy muhitining vakili Hayratiyning “Hayratnoma” nomli dostonida G‘arb milliy madaniyatining guvohi bo‘lgan, muayyan davlatlarning sayohatchisiga aylangan shoirlarning ko‘ngil kechinmalari aks ettirilgan.

Ahmad Donishning “Abdulqodirning elchiligi hamda Rusiyaning to‘y bazmlarida ko‘rilgan ajoyibotlar haqida” nomli she‘riy manzumasida Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan to‘y bazmi, u yerda chalingan musiqiy asboblar va qad rostlagan Eram bog‘idek afsonaviy binolar, urf-odat, an‘analar xususida batafsil fikrlar yuritiladi. Asarda shoirning Peterburg haqida bildirgan ilk taassurotlari hayrat ifodasi asosiga qurilgan:

Peterburg shahri senga poytaxt,  
Aning chun anga yordir ikki baxt.  
Eram bog‘i bu shahardek bo‘lmag‘ay,  
Buni ko‘rgan kishi ani suymag‘ay.[Ahmad Donish. Navodir ul vaqoye’: 1]  
To‘y haqidagi dastlabki taassurotlar esa  
Jahonda bo‘lib erdi ko‘rki chiroy,  
Bu qanday to‘y erdi, ko‘ring hoy-hoy.  
Quloqqa kirar udi naylar uni,  
Dutori, setorlar cholur tanburi

tarzda tasvirlanadi.

Shundan so‘ng to‘y bo‘lib o‘tayotgan binoning tasviriga e‘tibor qaratiladi. Shoir ruju’ (fikrdan qaytish) san‘atidan mohirona foydalangan holda she‘rning badiiyatini go‘zal ifodalashga erishgan. Shu bilan birga o‘z his-tuyg‘ulari va hayratlarini so‘z ma‘nolarini bo‘rttirgan holda tasvirlashga erishgan:

Qurilmish edi bu bino olti qat,  
Hamma ustma-ust erdi, qatma-qat.  
Falakka yetar erdi ayvonlari,  
Bulutga tiralmishdir ustunlari.  
Bu ustunlar erdi hama zar nigor,  
Emas zar nigor, balki zarrin devor.

Peterburgda bo‘lib o‘tgan Mariyaning to‘yida qizlar obrazining tasnif etilishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning milliy musiqa san‘atiga bo‘lgan e‘tibor va hurmati cheksiz ulug‘lanadi:

Cholg‘u, qo‘shiqchi, o‘yinchilari,  
Bu to‘yda yig‘ilmish pari qizlari.  
Biri chalsa qonun, biri arg‘anun,  
Bu bazmi ichra o‘ynardilar kunu tun.

O‘n kun mobaynida bo‘lib o‘tgan mazkur to‘y bazmida xotin-qizlarning tutgan o‘rni haqidagi shoirning munosabatlari va ularning portretini rassom kabi chizib ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega sanaladi:

Bu xontaxtaga o‘ltirur aylanib,  
Pari chehralar, sarvi qadlar kelib.  
Yuzi olmadek, ko‘ksida nori bor,  
Gapirsa aning og‘zida boli bor.

Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoye” asarining tarkibiga kirgan “Rusiyaga qilingan yana bir safar haqida” nomli bo‘limida ham rus milliy madaniyati tasviri yoritilgan. Bu bo‘limda ham xotin-

## ADABIYOTSHUNOSLIK

qizlar hayoti, turmush tarzi tafsilotlariga alohida urg'u berilgan: "Rusiyadagi har bir shaharda bazm-xona bo'lib, ularda har kech 12 gacha turli o'yinlar bo'lib turadi. Nag'ma-na'volar qilgan, raqsi samoga tushgan parichehra xotinlar sochlari sunbuldek sochilib, yuzlari qizil guldek ochilgan sarv qomat qizlar tomoshabinlarning ko'zlariga jilva berib, ko'ngillariga rohat yetkazib majlisni qizdiradilar". [Ahmad Donish. Navodir ul vaqoye':2]

Asarning bu bo'limida ajoyib tarzda qad rostlagan binolar, ayollarining kiyinish madaniyati, milliy liboslarigacha tasnif etilgan. Muallifning sinchkovlik bilan shahar aholisining kuzatishi natijasida insonlardagi azaliy salbiy illatlardan biri – hasad balosi ham ularga begona emasligi aniqlangan. Masalan, asarda shoirning bu haqda aytilgan "...Ivanning xotini o'n ming tillalik ust-bosh kiyib olti otli aravada yuradi-yu, Vaskaning xotini har jihatdan undan tubanroq yashaydi", kabi fikrlarida o'z tasdig'ini topgan.

Rus milliy madaniyati, ayniqsa, musiqa san'atining yuksak e'tirof etilganligi haqidagi fikrlar Zokirjon Furqatning "Toshkand shahrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida" hamda " Nag'ma va nag'magar va aning asbobi va ul nag'ma ta'siri xususida" nomli masnaviy usulida yozilgan she'rlarida ham mazmunan davom ettiriladi. Ushbu she'rlar ham shoir Furqatning sayohat xotiralarining samarasi sanaladi. Shoir asarining syujetini Rusiya bazmlarini ustidan nogoh chiqib qolganligi epizodi bilan boshlaydi:

Tushti bir oliy imoratg'a nigoh,  
Rusiya xalqig'a erkan bazmgoh.

Bilet oldim, anda o'lturdim kirib,  
Bazm bunyod etdilar, ko'rdim kirib. [Муқимов Р., Шарипов М. Қардош халқлар адабиёти: 3]

Shoir shundan so'ng bazm boshlanib, uning avj nuqtasiga chiqqanlik holatlarini tavsif etadi:  
Bir bola, bir xotin avval oz-oz,  
Bo'ldilar anda chiqibon nag'masoz.

Rus milliy musiqiy asboblaridan bo'lgan rayol, barbat kabilarning nomlari keltirilgani holda shoirning aqlini savt va nag'malar lol qilganligini hayrat bilan bayon etadi:

Iki zan chiqdi, biri choldi rayol,  
Biri aytib ashula bemisol.

Turdi barbatni chalib bir bola ham,  
Har uchov ketkizdi dard-u ranj-u g'am. [Муқимов Р., Шарипов М. Қардош халқлар адабиёти: 4]

Furqat san'atkorlarga, nag'ma va savtning mohirligiga tasannolar aytib, mazkur bazm soat o'n birgacha davom etganligini, so'ngra el o'z uyiga ravona bo'lganligini yozish bilan fikrlarini yakunlaydi.

Yoki shoirning aynan shu mazmun saqlanib qolgan keyingi masnaviysida aytilishicha, uning tomoshaga borishdan maqsadi – birinchidan, kuy va qo'shiq tinglash bo'lsa, ikkinchidan, teatr haqida axborotga ega bo'lish bo'lgan:

Yana necha tamosholarni etdim,  
Ajoyib nag'malarni ko'b eshitdim.

Ekandur nag'mai Rusiya digar,  
Ani asbobi ham g'ayri mukarrar. [Фурқат шеърятдан / Тузувчи: Холид

Расул:5]

Ushbu asarda ham san'at tushunchasi qadrlangani holda o'zbek milliy musiqa asboblarining bir qator nomlari keltiriladi. Shoir ulardan taralayotgan ohang va sadolardan sarmast va mahliyo bo'lganlik holatlari tasvirlanadi:

Musulmon ichra lekin nag'ma ko'p bor,  
Chunonchi g'ijjagu tanburi setor.

Dutoru arg'anun, qonun ila rud,

Rubobu doira, changi nayu ud. [Фурқат шеърятдан / Тузувчи: Холид

Расул:6]

Mazkur safar chog'ida ham rayol musiqiy asbobining nomi tilga olinadi. Asarda rayolni bir qiz chalganligi haqidagi qisqa epizod mavjud:

O'zimga tushti bir kun ushbu ahvol,  
Bor erkan nag'ma oning oti rayol.

Eshitdim bir qiz anda bahri xojot,  
Qilur nag'ma tili birla munojot.

Bundan tashqari Furqatning "Akt majlisi xususida" nomli she'rida ham san'at tushunchasi e'zozlangani holda unda ham shoirning ko'rgan-kechirganlarini hayrat bilan so'zlashlari bayon qilingan.

Umuman olganda, milliy uyg'onish davri adabiyotining she'riyatida Furqat qalamiga mansub bo'lgan she'riy manzumalar o'zining Yevropa madaniyati va san'atini batafsil tanishtirib berganligi bilan xarakterlanadi.

Andijon adabiy muhiti vakili Hoshim Solih o'g'li Hayratiyning "Hayratnoma" asari 1918 -yil, 6-yanvar kunida bo'lib o'tgan real voqealar asosida boshlanadi. Asarda shoir yashab ijod etgan davr va muhitda yuz bergan voqeliklar bayon qilingan. Tarixiy-siyosiy mavzuda bitilgan mazkur lirik asarda o'tgan asr boshlarida Andijon viloyati, Shahrixon uyezdi va unga yaqin bo'lgan qishloqlardagi ko'ngilsizliklar haqida gap boradi. Dostonda sho'ro tuzumida boshmachilar deb nom olgan, biroq milliy mustaqilligimizdan so'ng ularga "xalq qahramoni", "istiqlolchilik harakatining yetakchilari" deb qaralayotgan Madaminbek, Ko'r Shermat kabilar bilan bog'liq bo'lgan realistik manzaralar aks ettiriladi. Real voqeliklarning ishtirokchisiga aylangan shoir o'sha paytda maorif noziri bo'lganligini, G'arb o'lkasidan to'pponchalarini ushlagan holda 600 dan ortiq otliqlarning Shahrixonga kelganligi haqidagi o'zining ko'rgan-kechirganlarini bayon etadi.

Asarda paxta zavodida bo'lib o'tgan talon-taroj, ko'ngilsizliklar orqali xotin-qizlar erki va huquqlarining poymol qilinganligi, ularning jismoniy va ruhiy jihatdan azoblanishi kabi jarayonlar ochib beriladi. "Hayratnoma"da paxta zavodi ishchisi nomusi toptalgan nemis qizi obrazi bilan bog'liq bo'lgan epizod uchraydi. Quyidagi baytlar dostonidagi shu qiz taqdiri bilan bog'liq bo'lgan voqelikni yoritishga yo'naltirilgan:

Urib boshlarin pora-pora qilib,  
Xotin-qiz vijudini yora qilib.

Bor erdi u zavodda nemis qizi,  
Nazokatda go'yo parining o'zi.

Palidlar harom etdi bechorani,

U baxti so'nik, ko'ngli yuz rohani.[ Хайратий. Хайратнома / Редактор:

Муинзода:7]

Qizning oydek chiroyiga mahliyo bo'lgan, aqlidan shahvoniy hirs va tuyg'ulari ustun kelgan, muallif tomonidan "palid" (qabih, razil, jirkanch) deya tanishtirilgan kishilarning qilgan ishlari o'sha paytda xotin-qizlarning erki o'zida emasligiga nishona sanaladi.

Tojik shoiri Ahmad Donishning Rusiya eliga qilgan safari bayoniga bag'ishlangan tafsilotlar va Hayratiyning "Hayratnoma" dostonida keltirilgan voqealarni bir-biriga solishtirish natijasida mazkur shoirlar yashab ijod etgan davrda dunyoning ikki qutbga, ya'ni "oqlik" va "qoralik" tomonlarga ajrab qolganligining guvohi bo'lamiz.

Ahmad Donish asarida ruslarning ijtimoiy hayoti ajoyib manzaralarga boyligi bilan yuksak ahamiyat kasb etganligi jihatidan ajralib turadi: "...bir oliy imoratga kirib keldik. Uning ichida san'at bilan solingan bir qancha katta-kichik uy va hujralar bor edi. Bu uy va hujralar o'ymakorli bo'lib, eshik darchalariga ipak pardalar osib tushirilgan, ichkarida ziynatli karavotlar qo'yilgan, to'rt tarafda odam bo'yi oynaklar qo'yilgan bo'lib, ular orasida qimmatbaho guldon va shamdonlar bor."

Hayratiy dostonida o'z yurtida qahatchilik va qimmatchilik hukm surayotganligi tasviri yuqoridagi Ahmad Donish ifodalagan ruslarning ijtimoiy hayotiga taalluqli peyzaj san'atiga zid turadi:

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Qahatlik bo'lib, g'allamiz yo'q edi,  
Faqat boy, ruhoniylar to'q edi.

Ko'chishga bular topmagan bir iloj,  
Qolib joylarida yalang'och va och.

Qochib biz teshiklarda etdik maqar,  
Qochoqlik balosi erur bir saqar.

Yoki ushbu dostondagi aholining turmush tarzi, ularning bevaqt kelgan ochlik balosiga nisbatan qilgan sabr-bardoshi quyidagi baytlarda yanada yorqinroq ifodalangan:

Ajab bo'ldi qimmatchilik ko'p yomon,  
Der erdi xaloyiq; "Bering bizga non!"

O'tib hafta bozorga don kelmadi,  
Munga bir iloj ham qilib bo'lmadi.

Rusiya o'lkasida to'qlik, o'yin-kulgu, to'y-tamosha bo'lib o'tayotgan bir pallada kishilarni o'ziga maftun qiluvchi musiqa sadolari yangraganligi Abdulqodirboy obrazi orqali Ahmad Donish ko'nglini chuqur chulg'ab oladi. Ayni shu davrda Hayraty tasvirlagan Turkiston aholisi san'at tushunchasining neligini hayollariga ham keltirmay, ochlik balosidan azoblanayotganligining ifodalashi jamiyatning "to'qlik" va "yo'qlik" jarayonini bosib o'tganligini ifoda etadi. Shoir Hayratyning yozishicha, mazkur davr

Yigirmanchi yilgacha shunday bo'lib,  
Shahar xalqi o'z joyida o'ltirib.

Shu kunlarda qimmatchilik hukmron,  
Kepak, kunjarani yedi nonsimon

tarzda davom ettiriladi.

Yoki har ikki shoirning asarlarida murojaat qilgan xotin-qizlar obrazining, ularning kiyinishi, madaniyatini, taqdirini yoritilishida ham ikki xil tafovut mavjud. Hayraty dostonida tasvirlanishicha, qizlar hali balog'at yoshiga yetmay, erta xazon bo'layotganligi, ularning qismati krepostnoy (pomeshchiklarning o'ziga qarashli dehqonlarga, mehnati va mol-mulkiga cheksiz egalik qilish huquqi)ga topshirilgan.:

Ko'rinsa ko'ziga bironing qizi,  
Ketar uydan olib ki qolmas izi.

Biloxir to'yib jonidan xalqimiz,  
Dedilar: "Balo bo'ldi bizlarga qiz."

Ahmad Donish taassurotlar bilan esa asarida G'arb qizlarining taqdirini yoritishda boshqacha turmush, to'kin hayotga boy ekanligini ifodalashi bilan ajralib turadi. Rusiya hayotidagi qizlar tasvirini yozishda shoir ularni "g'ayb olamidan tushgan ruhlarmi yoki bihishtdan dunyoga yuborilgan hur qizlarmi", deb o'ylaydi:

"Oy yuzli, sarv bo'yli, nozik badan mahbubalar, yasanishib, zol ichida xirom qilur edilar. Yurganlarida o'yinchi kiyiklardek har tarafga qarab, to'lg'anib, buralib yurar edilar. Qatma-qat kiygan nafis ipak liboslari ul nozaninlarning nozik oq badanlarini yopolmas edi. Ba'zilar boshdan-oyoq bo'ylariga qora ipak to'r tortgan edilar. Bularni ko'rganda ularning husn-jamollariga, ishva va nozlariga qarab aqllar hayron, tillar lol bo'lar edi."

**NATIJALAR**

O'tgan asrning boshlarida Turkiston hayotiga aholining sayohat qilishga bo'lgan qiziqishi ortib bordi. Natijada G'arb madaniyati, ularning turmush tarsi, adabiyot va san'atiga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bordi. Sayohat taassurotlari bilan bog'liq holda lirik asarlar yozgan va o'zining ko'rgan-kechirganlari boshqalar bilan o'rtoqlashish an'anasi Zokrijon Furqat, Hayraty va tojik shoiri Ahmad Donish ijodi xarakterli jihatlardan sanaladi. Ikki millat ijodiga mansub bo'lgan she'riy asarlarsa esa oddiy xalqning orzu va o'ylari, real turmush manzaralarining mushtarak holda yoritib berilganligi jihatidan diqqatga sazovordir.

**XULOSA**

Muxtasar qilib aytganda, milliy uygʻonish davri tojik va oʻzbek shoirlarining jamiyatda yuz berayotgan real hayotiy voqeliklar asos qilib olingan asarlarida aholini, ayniqsa, xotin-qizlar taqdirini yoritib berganliklari diqqatga sazovordir. Sharq qizlarning oʻz baxtidan bahra ololmay, undan erta mosuvo boʻlganlik holatlarini koʻrib, taʼsirlanishlarini yoritish bizga haqqoniy oʻtmishimiz haqida saboq beradi. Shu bilan birga aynan bir davrdagi Gʻarb va Sharq hayotining tamaddunidagi farqli jihatlari dunyoning ikki qutbga ajralib ulgurangani xususida ogohlantiradi.

**ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Ahmad Donish. Navodirul vaqoye'. (Nodir voqealar) / Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi Moʻminov I.M. tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1964. 249-bet.
2. Yuqoridagi asar, 1964.253-bet.
3. Muqimov R., Sharipov M. Qardosh xalqlar adabiyoti. Darslik-xrestomatiya. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1967.112-bet.
4. Muqimov R., Sharipov M. Qardosh xalqlar adabiyoti. Darslik-xrestomatiya. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1967.110-bet.
5. Furqat. Saylanma / Nashrga tayyorlovchi: Xolid Rasul. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2009.43-bet.
6. Furqat sheʼriyatidan / Tuzuvchi: Xolid Rasul. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1980.110-bet.
7. Hayratiy. Hayratnoma / Redaktor: Muinzoda. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.146-bet.